

## ILMIY ISH VA TADQIQOT OLIB BORISHDA FOYDALANILADIGAN USLUBLAR

Jasurbek Pulatov

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
Xalqaro Munosabatlar kafedrasи o'qituvchisi*

**Abstrakt:** Dunyo hamjamiyatining har bir sohasi keng tadqiq etilayotganda, bu uchun kerakli bo'lgan bir qancha yordamchi vositalardan foydalaniladi. Ilmiy tadqiqot turlari bo'lgan: kurs ishlari, referatlar, mustaqil ishlar bilan birgalikda, bitiruv malakaviy ishi yozilayotganda ham bir necha usul va metodlardan keng foydalaniladi. Umumiy olganda ilmiy tadqiqot ishi yozilayotganda tanlangan usul va metodlarining ahamiyati, ular qo'llanilgandan so'ng tadqiqot mavzusining samarali yoritilishi va tadqiqotdan anglashiladigan ma'noning mazmun mohiyati davr ruhiga monand tashkil etilishida metodlar asosiy aspectlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqot mavzuyi yozilayotganda, uning qay tariqa shakllanishida, har bir bosqichda foydalaniladigan turli uslublar asosiy o'rinni egallaydi. Mavzu dolzarb ahamiyat kasb etishi, yozuv tili mukammal chiqishi va ilmiy ish tugal tadqiq qilinishida tanlangan metodlar samarali foya keltiradi.

**Kalit so'zlar:** Metodologiya, Ilmiy tadqiqot, analiz, sintez, qiyoslash, emperik, aksiomatik, tizimli tahlil

Metodlar jamlanmasi bo'lgan metodologiya yunoncha ( $\mu\epsilon\theta\delta\sigma\lambda\omega\gamma\alpha$ )<sup>[6]</sup> uslub to'g'risida ta'lilot hisoblanadi. Metodologiya ma'lum bir sohani, buyum yoki vositani tadqiq qilish uslublari, usullari va strategiyalari jamlanmasi hisoblanadi. Metodologiya tadqiqot ishi doirasida muayyan qoidalar, uslublar va ma'lum bir texnikalar yordamida amalga oshiriladi. Metodologiya ("metod" va "logos") tarkibiy, mantiqiy tuzilish, faoliyat usullari va vositalari to'g'risida ta'lilotdir. Metodologiya metod<sup>[7]</sup> tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har qanday faoliyat sohasi bo'lgan fan, ilm, iqtisod, siyosat ka'bi turli yo'nalishlarda qo'llaniladigan uslublar jamlanmasi hisoblanadi. Metod – nazariy va amaliy faoliyat uslublari jamlanmasi hisoblanib, o'rganilayotgan obyektning xarakteri va qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, voqealikni nazariy va amaliy rivojlantirish shakli sifatida ham tavsiflanadi. Ilmiy tadqiqot ishida metodning bir qancha turlari asosiy ro'lni o'ynaydi. Bunga misol sifatida: dialektik metod, metafizik metod<sup>[8]</sup>, tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, analogiya (umummantiqiy)<sup>[9]</sup> kuzatish, tasvirlash, o'lchash, tajriba o'tkazish,

<sup>[6]</sup> Новиков А.М., Новиков Д.А. Методология. – М.: СИНТЕГ, 2007; с – 10,11

<sup>[7]</sup> Новиков А.М., Новиков Д.А. Методология. – М.: СИНТЕГ, 2007; с – 501

<sup>[8]</sup> <https://laws.studio/voprosyi-filosofii/dialektika-metafizika-kak-metodyi.html>

<sup>[9]</sup> [https://studme.org/209864/filosofiya/osnovnye\\_obschenauchnye\\_metody](https://studme.org/209864/filosofiya/osnovnye_obschenauchnye_metody)

taqqoslash (empirik)<sup>[10]</sup>, aksiomatik, gipotetik, formalizatsiya, abstraktlash, umumlashtirish, aniqlik, tarixiylik va tizimli tahlil (nazariy)<sup>[11]</sup> metodlarini misol keltirish mumkin.

Tarixiylik uslubi<sup>[12]</sup> doirasida tadqiqot mavzuyining bugungi kundagi dolzarbliги uning tarixiy ahamiyati bilan bevosita chambarchas bog'liq ekanligi, mavzuning shakllanish bosqichlari: vujudga kelish, asos yaratilishi, shuningdek, kelajakdagi qismati borasida ham yetarlicha ma'lumotlar berish orqali ilmiy tadqiqot mavzusining rang – barangligiga erishiladi. Tarixiylik metodi yordamida mavzu obyektining rivojlanish istiqbollari, ehtimoliy o'zgarishlar yuzasidan qarorlar qabul qilinishiga erishilish imkoniyati yuzaga keladi.

Tarixiylik metodining uzviy qismi bo'lgan qiyosiy – tarixiy metod<sup>[13]</sup>, qiyoslash orqali mavzuga aloqador bo'lgan voqeа hodisalarning, ayni holatdagi tarixiy namunalarini umumiyligiga xususiyligiga ko'ra, farqlilik va o'xshashligini solishtirish orqali mavzu gipotezasining rivojlanishi va o'z yechimiga ega bo'lishiga katta hissa qo'shilishiga olib keladi

Ilmiy tadqiqot mavzusi o'rganilishida yana bir muhum metod, tizimli uslub hisoblaniladi. Har qanday tashkil etiladigan tuzilmaning samaradorligi, u tomonidan jamiyatga keladigan foyda va albatta, ayni shu tuzilmaning barhayotligi ko'pgina holatlarda uning poydevori bo'lib xizmat qiluvchi tizimga bog'liq bo'ladi. Tizim sifatida shakllantirilgan har bir element bugungi kunda eng zaruriy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Tizimdan ishlab chiqarish, professional faoliyat tashkil etish va boshqa ko'plab holatlarda foydalaniлади. Tizimli uslublar<sup>[14]</sup> yordamida xalqlar o'zaro aloqalarida yetakchi ro'l o'ynaydigan institutlarning tashkil topib, shakllangan, mukammal bilan birgalikda, nomukammal ko'rinishdagi tizimlarini o'rganish, tizim ichidagi o'zaro bog'liqliklar, tarkibiy qismlar va ular bilan tashqi munosabatlarning qay tariqa kechishi, o'zaro bog'liq ko'rinishda turli ta'sirlar va uning natijasida sodir bo'ladi gan holatlarni tadqiq qilish, mavzuning mukammal ko'rinishga kirishiga o'ziga xos tarzda muhim ahamiyat kasb etadi. Murakkab tizimda sodir bo'luvchi jarayon va hodisalarning tahlilida ko'pgina omillar inobatga olingani holda, ayni shu jarayonlarning asosiylarini ajratib olish va har bir bosqichda tadqiqotni samarali tashkil etish uchun analiz va sintez metodlari yetakchi o'rinnlarda turadi.

Analiz<sup>[15]</sup> metodida mavzuni element, qism, bo'laklarga ajratib olinib, har biri yakka holda mazmun – mohiyati tahlil etiladi. Analiz metodi orqali hodisa va predmetlar strukturalari, tuzilishi va har bir elementning tarkibiy xossalari aniqlanadi. Sintez usuli yordamida analiz metodi yordamida qismlarga ajratilgan bo'laklar, o'zaro bog'lanish orqali

<sup>[10]</sup> <https://www.enago.ru/academy/conceptual-vs-empirical-research-which-is-better/>

<sup>[11]</sup> Методология научного исследования: учебное пособие / Н.В. Липчиу, К.И. Липчиу. – Краснодар: КубГАУ, 2013/- 290 с

<sup>[12]</sup> Краевский В.В. Методология научного исследования: Пособие для студентов и аспирантов гуманитарных ун-тов. – СПб.: СПб. ГУП, 2001.

<sup>[13]</sup> <https://studyboom.ru/uz/monograficheskii-metod-issledovaniya-sravnitelno-istoricheskie-metody/>

<sup>[14]</sup> <https://smekni.com/a/213657/sistemnyy-metod-issledovaniya/>

<sup>[15]</sup> Аналитические методы и информационные технологии в исторических исследованиях: от оцифрованных данных к приращению знания : Материалы XVI международной конференции Ассоциации «История и компьютер» : 26–28 октября 2018 г., Москва. – Москва : МАКС Пресс, 2018. – 184 с.

yana butun holatiga keltiriladi. Analiz metodi tadqiqot mavzuyining uslubiy asosini yaratilishiga olib kelsa, sintez metodi yordamida umuman yangi bo'lgan mahsulot vujudga keladi. Uning xususiyatlari faqatgina tarkibiy qismlarning tashqi kombinatsiyasini aks ettirmay, uning ichki aloqalarini bilan o'zaro bog'liqligini ifoda etadi.

Empiric<sup>[16]</sup> metodi ilmiy tadqiqot olib borishda, uning tarkibini tajribadan kelib chiqqani holda, hodisalarni idrok etishga qaratilgan bo'ladi. Aynan empiric metod yordamida tadqiqot ob'yekti hodisalarning xususiyatlari va ularning o'zaro bog'liqligini tashkil etishda xizmat qiladi. Empiric metod tadqiqotlardan tabiiy yoki ijtimoiy obyektlar bilan o'zaro moddiy ta'sirni ta'minlashi kerak bo'ladigan haqiqiy kuzatuvlar va o'lchovlarga asoslangan bo'ladi. Empiric metodlardan tadqiqot mavzuni yoritishda kuzatish, tavsiflash va taqqoslash usullari samarali foyda keltiradi.

Tadqiqot mavzusini yoritishda kuzatish metodi<sup>[17]</sup> asosiy o'rinda turuvchi aktorlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Mavzuni kuzatish yordamida mavzu obyektining tashqi tomonlari haqida ma'lumot olish bilan birlgilikda, asosan uning muhim xususiyatlari va boshqa elementlar bilan o'zaro bog'liqlik munosabatlari haqida kerakli ma'lumotlar qo'lga kiritilishiga olib keladi. Kuzatish asosan, turli xil manba va vositalar orqali to'g'ridan – to'g'ri yoki bilvosita olib boriladi. Kuzatish metodi<sup>[18]</sup>dan foydalanishning o'ziga xos talablari mavjud bo'lib: aniqlik, qayta kuzatish, turli usullar bilan boshqarish va albatta, talqin qilish singari majburiyatlardan tashkil topgan bo'ladi. Kuzatish orqali mavzu doirasida bugungi kundagi jamiyatda tutgan o'rnini aniqlash, shuningdek, uning samarador faoliyatiga ijobiy yoki bo'lmasa salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar zanjirini konkretlashtirish, jarayonning yashash vaqtini turli prognozlar yordamida tahmin qilish imkoniyati ham yuzaga keladi. Shu bois, ilmiy tadqiqot ishi yozilayotganda kuzatish metodi eng kerakli metodlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot ishi doirasida tavsiflash metodi<sup>[19]</sup> ham o'ziga xos o'rinni egallaydi. Tavsiflash bu kuzatuv va tajriba o'tkazish natijalarini qabul qilgani holda, ma'lum tizimlar yordamida jarayonni anilashtirishdan iborat bo'lgan bilish jarayoni hisoblanadi. Tavsiflash metodida turli xildagi diagrammalar, jadvallar, sxemalar va boshqa yordamchi vositalar yordamida tadqiqot ishi mukammal ko'rinish kasb etadi.

Tadqiqot olib borilayotganda, ma'lumot va kerakli aspektlarni yetkazish borasida turli sxemalar, har xil jadvallar va turfa diagrammalar qo'shimcha yordamchi vosita hisoblanadi. Tadqiqot ishini ayni shu, yordamchi vositalar bilan boyitish, mavzuning dolzarbliji ortishiga va hamda, uning gipotezasini aniqlash osonlashuviga olib keladi.

<sup>[16]</sup> [https://bsu-philosophy.fandom.com/wiki/Методы\\_эмпирического\\_исследования:\\_наблюдение,\\_эксперимент,\\_сравнение,\\_измерение](https://bsu-philosophy.fandom.com/wiki/Методы_эмпирического_исследования:_наблюдение,_эксперимент,_сравнение,_измерение)

<sup>[17]</sup> <http://www.insomar.ru/metody/metod-nablyudeniya/>

<sup>[18]</sup> Смыковский В.В., Лобанова Е.С. Метод наблюдения в структуре педагогической модели формирования готовности сотрудников территориального органа ФСИН России к действиям при возникновении чрезвычайных обстоятельств // Мир науки. Педагогика и психология, 2019 №1, <https://mir-nauki.com/PDF/30PDMN119.pdf>

<sup>[19]</sup> Основы научных исследований: Учеб.-метод. Пособие / А.Н. Огурцов. – Харьков: НТУ «ХПИ», 2008. – 178 с.

Taqqoslash<sup>[21]</sup> – bu o'rganilayotgan mavzuni, uning obyektining boshqa shu kabi namunasiga o'xshashligini yoki farqini (shuningdek, bir xil obyektlarning rivojlanish bosqichlarini) ochib beradigan jarayon bo'lib, umumiylar xususiy o'xshashlik va farqlilik jihatlarini tadqiq etishda foydalaniлади. Taqqoslash metodi<sup>[22]</sup> faqat ma'lum bir toifani tashkil etadigan bir xil obyektlar yig'indisi shakliga kelganda asosiy ma'no kasb etadi. Ayni toifaga kiradigan obyektlarni taqqoslash ushbu toifaning tegishli xususiyatlariga qarab amalga tadqiq etiladi. Taqqoslashning olib borilayotgan tadqiqotga ijobjiy xizmati shundan iboratki – turli xil hodisalarning rivojlanishining turli bosqichlarini (davrlarini, jarayonlarini) o'rGANISHDA umumiylar maxsus xususiyatlarini aniqlashdan iborat bo'ladi.

Empirik metodning ayni shu uch usullari yordamida tadqiqot mavzusining poydevori shakllantirilgan holda, mavzu dolzarblik ahamiyati ortishiga erishiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Аналитические методы и информационные технологии в исторических исследованиях: от оцифрованных данных к приращению знания : Материалы XVI международной конференции Ассоциации «История и компьютер» : 26–28 октября 2018 г., Москва. – Москва : МАКС Пресс, 2018.
2. Краевский В.В. Методология научного исследования: Пособие для студентов и аспирантов гуманитарных ун-тов. – СПб.: СПб. ГУП, 2001.
3. Методология научного исследования: учебное пособие / Н.В. Липчиу, К.И. Липчиу. – Краснодар: КубГАУ, 2013
4. Новиков А.М., Новиков Д.А. Методология. – М.: СИНТЕГ, 2007
5. Основы научных исследований: Учеб.-метод. Пособие / А.Н. Огурцов. – Харьков: НТУ «ХПИ», 2008.

<sup>[21]</sup> Murfin, Ross; Rey, Supryia M. (2003). *Bedford tanqidiy va adabiy atamalar lug'ati* (2-nashr). Bedford / St. Martins. pp.447–448

<sup>[22]</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/sravnitelnyy-metod>